

G'ARB UYG'ONISH DAVRI FALSAFASI G'OYALARI

Ramatov Jumaniyoz Sultonovich

Falsafa fanlari doktori, professor

Sultanov Sirojbek Xabibullayevich

Dotsent v.b.

Toshkent davlat transport universiteti

+99 894 620 35 10

sirojbek.sultanov@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrgacha Ovrupo mamlakatlarida ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va manaviy-madaniy o'zgarishlar, uyg'onish davri gumanizmining moxiyati va xususiyatlari hamda uygonish davrida sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishi haqida fikr va g'oyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: uyg'onish, gumanizm, gelotsentrik nazariya ratsionalizm, ratsionalizm, ilmiy bilish, demokratiya, tabiiy huquq.

ABSTRACT

The article covers the socio-economic, political and spiritual-cultural changes in European countries from the second half of the 14th century to the 16th century, the essence and characteristics of Renaissance humanism, and the development of sociological teachings during the Renaissance.

Key words: awakening, humanism, heliocentric theory, rationalism, rationalism, scientific knowledge, democracy, natural law.

KIRISH

«Uyg'onish» — insoniyat ma'naviy taraqqiyotidagi uyg'onish davri. 15-asrdan e'tiboran Evropada Uyg'onish davri bopshandi. Tabiiyki, ushbu ijtimoiy-tarixiy jarayon Evropaning turli mamlakatlarida turlicha kechdi. Uyg'onish, davri, mutaxassislarning fikriga ko'ra, Evropada uch asosiy bosqichni: ilk bosqichni 14-asr, etuklik bosqichini 15-asr va oxirlab qolgan so'nggi bosqichni 16-asr bosib o'tdi. Uyg'onish, o'zining ilk bosqichida butun Evropani emas, balki uning eng rivojlangan mamlakatlarini qamrab oldi. Uyg'onish, davrining ilk bosqichining izlari qadimga Italiyaga borib taqaladi. Uyg'onish, g'oyalari qadimgi Italiyada 12-asrdayoq vujudga kelgan edi. Xuddi shuning uchun ham Uyg'onish, o'zining ilk bosqichida sof «italyancha voqe» edi. O'z taraqqiyotining etuk bosqichiga u butun Evropaga xos xususiyat kasb etdi. Bu paytda Evropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida hunarmandchilik va savdo-sotiqning tez rivojlanishi boshlandi. Kishilarning shahar tomon intilishlari oshib ketdi. Jamiyat hayotida shaharlarning o'rni va ahamiyati

uzluksiz kuchaydi. Yangi iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshladi. Kishilarning turmush tarzida muhim ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Uyg'onish, davri o'ziga xos yangi madaniyatni yaratdi. Ushbu madaniyat nafaqat dinga, balki ilm va fanning ilg'or yutuqlariga tayana boshladi. Ilk Uyg'onish, davrida fanning buyuk qudratli qadriyatlari ulug'landi va yanada boyidi. Oqibatda Uyg'onish, davrida Evropaning rivojlangan mamlakatlarvda inqilobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Chunonchi, bu davrga kelib birinchi kitob nashr etildi, Kolumb tomonidan Amerika kashf etildi, Vasko da Gama Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi, Magellan o'zining uzoq davom etgan sayohatiga asoslanib, Er kurrasining sharsimon ekanligini isbotladi, geografiya va geodeziya fan sifatida e'tirof etildi. Mamtematikaga simvolik belgilar qabul qilivdi, ilmiy anatomiya va fiziologiya asoslarini fan sifatida o'rganish boshlandi. Ximiya va astronomiyada yirik yutuqlarga erishildi va h.k. Uyg'onish, davriga qelib xristian dini o'zining mafkuraviy hukmronlik mavqeini yo'qota boshladi, ijtimoiy turmushning barcha sohalarida din va cherkovning zo'ravonlik ta'siri barham topdi. Bunday keskin burilish, faqat fan, fal. san'at va adabiyotdagina emas, balki xristian dinining o'z qobig'ida ham ro'y berdi. Ya'ni Evropaning bir qator mamlakatlarida sekulyarizatsiya jarayoni boshlandi. Sekulyarizatsiya (din, cherkov ta'siridan xoli bo'lish) jarayoni kishilar dunyoqarashida dinning ta'sirini kamaytirib yubordi. Shuningdek, bu jarayon ijtimoiy turmushning boshqa sohalariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadni. Oqibatda kishilarning fikrlash madaniyatida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tabiiy, fikrlash madaniyatidagi bunday keskin o'zgarish o'rta asr teokratizmiga qarshi kurash zaminida vujudga keldi va rivojiana boshladi. Endilikda kishilarning fikrlash madaniyatida gumanistik qarashlar ustuvorlik qila boshladi. Tabiiy ijtimoiy muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga insonning intellektual aqliy imkoniyatlari nuqgai nazaridan qarash insonning baxtliligi yoki baxtsizligining sabablarini osmondag'i ilohiy mo'jizadan emas, balki u yashayotgan muhitdan izlash tuyg'ulari qaror topa boshladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kishilarning fikrlash madaniyatida gumanistik tamoyillarning ustuvorlik qilishi, ularning antik madaniy merosga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirdi. Bu hol o'z navbatida antik falsafa namoyonda larining asarlarini o'rganishga bo'lgan intilishini ham kuchaytirdi. Qadimgi Yunon faylasuflari Platon va Aristotel falsafasi qayta taxlil qilina boshlandi. Neoplatonizm, stoiklar falsafasi Epikur va Tsitseron qarashlariga qiziqish kuchaydi.- Uyg'onish eng avvalo, antik zamonning madaniy va falsafiy merosi haqida erkin fikr yuritish, har qanday qoidalarni o'zgarmas, mutlaq haqiqat deb qarashdan voz kechish inson bisotida mavjud bo'lgan qrbiliyat va

iste'dodni erkin namoyish qilish uchun vujudga kelgan imkoniyat edi. Xuddi shuning uchun ham barcha ijod ahli «yopiq maktablar» namoyondalari emas, balki mustaqil tadqiqotchi sifatida harakat qila boshladilar, har bir tadqiqotchining o'ziga xos bayon qilish, ilmiy-falsafiy asarlarni o'ziga xos talqin qilish, voqelikni real tasvirlash uslublari vujudga keldi. Bunday uslublar o'tmish falsafiy adabiyotlarining sxolastik — bachkanalikka asoslangan murakkab bayon qilish uslubiga zid edi, uzoq davrlar mobaynida hukmronlik qilib kelgan diniy-ilohiy mafkuraning tor manfaatlaridan iborat bid'atlarga qarshi kurash usuli edi. Uyg'onish, madaniyatining asosiy targ'ibotchilari va tashviqotchilari shahar aholisining yuqori tabaqalari-yirik ishbilarmonlar, meshchanlar yuqori ma'lumotga ega bo'lgan ziyyolilar edi. Uyg'onish, davri madaniyati insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan va falsafasi insonni eng oliv qadriyat ekanligini har tomonlama isbotlashga urindi. Xuddi shu davrga kelib ijtimoiy munosabatlarni baholashning yangi mezoni — insoniylik kriteriysi vujudga keldi. Insoniylik ajdodlar yaratgan madaniy-ma'naviy merosni o'zlashtirish qobiliyati bilan belgilandi, olamni teotsentrik tushunishdan antropotsentrik tushunishga o'tildi. Bunday inqilobiy o'zgarish, shubhasiz, o'ta murakkab jarayon bo'lib, turli ziddiyatlarga to'la edi. Xuddi shuning uchun ham Uyg'onish, Evropaning turli mamlakatlarida turlicha shakllarda namoyon bo'ldi.

Ilm -fanga e'tibor kuchaydi, amaliyot bilan fan orasidagi chegara ham o'zgara boshladi. Injener va rassom nafaqat va o'rta asr zamona sidagidek «san'-atkor», «texnik», balki chinakam ijodkor yaratuv-chi darajasiga ko'tariddi. Kepler, Galiley, Kovaleri singari ijodkorlar Xudo tomonidan sodir etijan tabiiy hodisalarini ichki tuzilishidagi o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini bilishga intil-ganlarini ularning ijodida uchratamiz. Inson to'g'risidagi qarashlar R. davrida yanada yuksaklikka ko'tarila boshladi. Insonning qadr-qiymati har to-monlama osha boshladi. O'rta asrlarda mavjud bo'lgan inson — Xudo orasidagi ittifoq haqidagi qarashlarga darz ketdi. Inson Xudodan ajralib, mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Endi u falakiyotdan emas, balki o'zidan najot izlay boshladi. O'zining teranlashib borayotgan aql-farosatidan, go'zallahib borayotgan tanasining imkoniyatlaridan madad qidirishga tushdi. Xuddi shu bois Uyg'onish, davri antropotsentrizmida go'zallikni ulug'lash tamoyili ustivor mavqega ko'tarildi.

XIV asrlarda dastlab Italiyada vujudga kelgan bu yangi madaniyat gumanizm nomini oldi. Umuman gumanizm iborasi lug'aviy jihatdan insoniylik, degan ma'noni anglatadi. O'z mohiyati jihatidan bu madaniyat cherkov, ilohiyotga xos bo'lgan ma'rifatlilikdan uzoqlashishni anglatadi. Zero, gumanistlar dunyoviy fanlarni cherkov sxolastikasiga qarshi qo'yardilar.

Bu madaniyatning eng asosiy mohiyati cherkov tomonidan inkor etilgan inson shaxsining manfaatlari va xuquqlarini himoya qilgan gumanizm edi, chunki u har tomonlama rivojlangan inson shaxsi haqida gapirsa ham, butun xalqni nazarda tutmas edi. Ikkinchidan, bu gumanizm insonni har qanday zo'ravonlikdan, cherkov hukmronligidan ozod qilish haqida orzu qilgan. Bu gumanizmning asosiy xususiyati individual erkka, raqobatga yo'l ochish edi. Dunyoqarashdagi bu yangi oqim o'sha davrda ilg'or tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ilmiy hayotdagi keskin o'zgarishlar o'z navbatida Uyg'onish davri falsafasining rivojlanish xususiyatlarini belgilab berdi. O'z mohiyati jihatidan bu falsafiy rivojlanish nisbatan ilmiy yo'nalishda bo'lib, uning asosiy maqsadi sxolastikaga tobora ko'proq zarba berish edi. Bu zarba shundan iborat ediki, falsafa gumanistik madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri sifatida ilohiyotning xizmatkori bo'lishdan butunlay voz kechadi.

XV-XVI asrlardan fan tobora ilohiyot bilan o'z aloqasini uza boshlab, astasekin mustaqil rivojlanish yo'liga o'tib din, cherkov hukmronligiga qarshi chiqqa boshlaydi. O'sha paytda jamiyatning ilg'or tabaqalari texnikaning nazariy asosi va diniy mafkuraga qarshi kurashda quroq bo'lgan tabiiyotshunoslikning rivojlanishidan manfaatdor edilar. CHunki sanoatni rivojlantirish uchun fan kerak edi. Bu fan fizik jismlar tabiat kuchlarining namoyon bo'lishi shaklida taxlil qilinar edi. Tabiiyotshunoslikning rivojlanib borishi keskin kurash bilan bog'liq edi.

Bu o'rinda Jordano Bruno, Galileo Galileylarning tabiiy-ilmiy, falsafiy qarashlari ustida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Kopernikning gelotsentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik Jordano Bruno (1548-1600)dir. U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur b o'ladi. Uzoq vaqt SHveytsariya, Frantsiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592 yilda Bruno Italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib, turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o'zining ta'limotidan voz kechmaydi, chatijada qatl etishga hukm qilinadi, 1600 yil 17 fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o'ldiriladi.

Bruno gelotsentrik nazariyani himoya qilish va targ'ib qilish oilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisob-ga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular falsafani yana ham boyitdi. Bruno ta'limoticha, haqiqiy falsafa ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak. Uning ta'limoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda k o'p dunyolar quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz k o'rib turgan narsalar koinotning

eng kichik bir qismidir. Yulduzlar - boshqa planeta sistemalarining Quyoshi. Er - cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiiy-ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli, deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta'limotini Quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

Brunoning qarashlarini rivojlantirgan, ilmiy dunyo qarashning rivojlanishiga katta hissa q o'shgan mutafakkirlardan biri Galileo Galiley (1564—1641)dir. Galileyning tabiatshunosli qtsagi xizmatlaridan biri shuki, u harakat ha qida hukmron b o'lgan o'rta asr sxolastik ta'limotni inkor qiladi. U o'z tajribalariga asoslangan holda yangi tajribaviy mexanikaga asos soldi. Uning ta'limoticha, birorta jismga berilgan harakat o'z- o'zidan y o' qolib ketmaydi, balki uni biron ta tash qi predmet qabul qilmaguncha t o'g'ri chizi q b o'y lab tekis harakat qiladi. Galileyning astronomiya sohasidagi kuzatishlari katta ahamiyatga ega edi. 1609 yilda u musta qil ravishda teleskop yasaydi. Birinchi marta u tufayli osmon sirlarini bilish imkoniyati tug'iladi. Galiley Yupiter y o'ldoshlarini, quyosh yuzidagi dog'ni kashf qildi, Oy sathida chu qurlik va tog'lar mavjudligini anikladi. Astronomiyada teleskopning kashf qilinishi fanda ha qi qiy in qilob yasadi.

Galileyning asarlari tabiatshunoslik va falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Uning falsafasi mexanistik xarakterda b o'lib, u ilohiyotchilik va sxolastik dunyo qarashga qarshi kurashda muhim b o'ldi. Galiley moddiy dunyoning ob'ektiv mavjudligani e'tirof etadi. Bu dunyo abadiy va cheksiz, mutla q, y o' qolib ketmaydi, hech narsa, hech nimadan paydo b o'lmaydi. Fa qat jismlar o'rtasida o'zgarish sodir b o'ladi. Galiley Yunoniston atomistlarining ta'limotini o'zgartiradi. Materiya — bu borli qning imkoniyati emas, balki real borli qning o'zidir.

Galileyning bilish nazariyasini ham falsafa tarixida izchil rol o'ynadi. U sxolastlarning ha qi qatni tanilgan nufuzlarning fikrini solishtirish bilan aniklash mumkin, degan ta'limotini tan qid qiladi. Uning ta'limoticha, fanning asosi tajriba, «bizning k o'zimiz oldida ochi q b o'lgan ulug' kitobda yozilgan» ha qi qiy falsafadir. Bu kitob — koinot, tabiatdir. Uni o' qishni o'rganish kerak. U ilmiy bilish erkinligining tarafdori b o'lgan. Galileyning fikricha, ikki kitob mavjud. Galiley ha qi qatni nufuzli shaxslar matnlarini solishtirish bilan emas, balki tajriba bilan aniqlash mumkin, deydi. Ha qi qatni bilish, Galiley ta'limoticha, moddiy jismlar va ular harakatining kattaligini, shaklini va mi qdorini bilishdir.

Galileyning bilish nazariyasicha, sezgilar bilishning boshlanishidir, yu qori bos qichi esa a ql faoliyati bilan tugallanadi. Mi qdoriy hissiy tahlil uning ma'lumot-larini a qliy tiklash bilan davom ettiriladi. Galileyning ontologik va gnosologik ta'li-moti falsafa rivoji tarixida muhim ahamiyatga ega b o'ldi.

Uyg'onish davrida o'rta asr ijtimoiy-siyosiy tuzumiga va ma'naviy hayotda cherkovning yakkahokimligiga qarshi kurash jarayonida ilg'or sotsiologik ta'limotlar vujudga keldi. O'sha davrda jamiyatning ilg'or tabaqalari dunyoviy, milliy va markazlashgan davlat tarafdori bo'lganlar. O'rta asr mafkurasiga qarshi quyi tabaqalar demokratiyasining himoyachilari ham turardi. Ular ijtimoiy tuzumni tubdan qayta qurish xaqida orzu qilar edilar. Xuddi shu davrga kelib insonning «tabiiy xuquqlari», xalqning suvereniteti xaqidagi g'oyalari vujudga keladi. Lekin «tabiiy xuquq» va «xalq suvereniteti» g'oyalari o'sha davrda voqealikda o'z aksini topa olmadi. Omaning inqilobiy portlashidan qo'rqqan yangi mulkdorlar kuchli davlat hokimiyati haqidagi ta'limotni asoslab berishni talab qillardilarki, bu davlat faqat er egalarining qarshiligini emas, balki xalqning inqilobiy harakatini bostirishga ham qodir bo'lsin. Bunday sotsiologik nazariyaning tipik vakillaridan biri Nikolo Makiavelli (1469-1527) edi.

Makiavellining ta'limoticha, dvoryanlar har qanday fu qarolikning yovuz dushmanlaridir. Shu bilan bir va qtda, uning k o'rsatishicha, hayajonlangan ommadan ham q o'r qinchliro q narsa y o' q. Makiavellining fikricha, tarixning harakatlantiruvchi kuchini «moddiy manfaat» tashkil qiladi. SHu bilan birga barcha moddiy manfaatning eng qudratlisi xususiy mulkdir. Odamlar o'z mulkini yo'qtishdan k o'ra, otalarining o'limini tezro q unutadilar. Makiavelli o'zining tarixga oid asarlarida ijtimoiy hodisalarining qonuniyliga ha qida ayrim fikrlarni aytadi. Jamiyatda ijtimoiy kuchlar kurashi mavjud. Lekin Makiavelli bu kurashning sabab-lari va ha qi qiy xarakterini tushuntirib berishdan juda uzo q. Makiavelli ta'limoti b o'yicha, davlatning asosi axlo qiy tamoyillardan tamomila holi b o'lgan kuchdir. Makiavelli asosan mul qdor sinflarning dastlabki sarmoya jamg'arish davridagi hokimiyatini o'rnatish tarafdori b o'lgan.

Bu davrning ikkinchi utopisti italiyalik Tommazo Kampanella (1568—1639)dir. Yangi falsafa va ozod fanning targ'ibotchisi b o'lgan Kampanella bir necha marta cherkovda sud qilinadi. 1602 yilda turmada u o'zining mashhur «Quyosh shahri» nomli asarini yozadi. Kampanella ideal jamiyatning xayoliy tasvirini yaratadi: bu xususiy mulk va individual oila ham tugatilgan jamiyatdir. Bu yangi jamiyat umumiy mehnat tamoyiliga asoslangan. Umumiy mehnat faxrli ish hisoblanadi.

Kampanella ilmiy va texnikaviy kashfiyotlarga juda yu qori baho berib, ularni ijtimoiy munosabatlar o'zgarishining asosi deb hisoblaydi. Kampanella ham Tomas Mor kabi harbiy ishni puxta tashkil qilishga katta ahamiyat berdi; chunki bu ideal jamiyatga tash qi ochk o'z q o'shnilarining hujum qilishi mumkinligini q o'rabildi. Ularning har ikkalasi ham harbiy ishda xayoliy orolliklar va quyosh shaharliklarning axlo qiy, tashkiliy va texnika jihatdan ustunligini k o'rsatadi. Falsafa sohasida

Kampanellaning qarashlari Uyg'onish davri uchun xos b o'lgan yangi va eskining qorishib ketishi bilan xarakterlanadi. Kampanella uchuvchi apparatlar loyihasini tuzish bilan bir va qtda, magiya va astrologiyaga ishonadi, butun kosmosning jonlanganligini aytadi. Tomas Mor va Kampanella ta'limotlarida xal q kuyi taba qalarining t o'la tenglik o'rnatish, farovonlik, tinchlik, insoniyat ma'naviy kuchini rivojlantirish ha qidagi ilg'or g'oyalar aks etgan.

REFERENCES

1. Kadamovich, Y. J., Muzaffarovna, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyorovna, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
2. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНМОХИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
3. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.
4. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.
5. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
6. Раматов, Ж. С., Эрниёзов, У. К., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ. *World scientific research journal*, 9(2), 65-70.
7. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Sultanov, S., & Khasanov, M. (2022). METHODS AND MEANS OF FORMATION OF SPIRITUAL MORAL CONSCIOUSNESS IN STUDENTS AND YOUTH OF UZBEKISTAN. *World scientific research journal*, 10(1), 257-262.
8. Жўрабоев, Н. Ю., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *World scientific research journal*, 9(2), 43-48.

9. RAMATOV, J., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & VALIEV, L. THE PLACE AND ROLE OF WOMEN IN THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM OF UZBEKISTAN. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 49-52.
10. RAMATOV, J., UMAROVA, R., BARATOV, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. WAYS OF REGULATING FAMILY RELATIONS AND PREVENTING CONFLICTS (IN THE EXAMPLE OF THE STATE OF UZBEKISTAN). *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 45-48.
11. РАМАТОВ, Д., УМАРОВА, Р., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., & ХАСАНОВ, М. ФИЛОСОФИЯ И БУДУЩЕЕ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12).
12. Султонов, С. (2017). Взгляды Амира Темура на нравственное и интеллектуальное воспитание. *Молодой ученый*, (4), 626-627.
13. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. LEADERSHIP FACTOR IN PROVIDING YOUTH COMPETITIVENESS. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 40-44.
14. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. THE IMPORTANCE OF FORMING HIGH MORALITY AND SPIRITUALITY IN YOUNG PEOPLE. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 78-81.
15. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. THE ROLE OF THE SCIENCE OF PROFESSIONAL ETHICS IN THE TRAINING OF SPECIALISTS AND RELATIONSHIP WITH OTHER DISCIPLINES. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12), 23-26.
16. РАМАТОВ, Д., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., ЭРНИЯЗОВ, У., ХАСАНОВ, М., & ВАЛИЕВ, Л. ПРАГМАТИЗМ ПРОТИВ ФИЛОСОФИИ ОБЩЕСТВА. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ* Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития", (12).

17. RAMATOV, J., BARATOV, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., ERNIYOZOV, U., & VALIEV, L. THE ROLE OF AUROBINDO GHOSH'S CONCEPT OF EDUCATION. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО "Институт управления и социально-экономического развития",* (12), 57-60.
18. Sultanov, Sirojbek Habibullayevich (2023). YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1), 698-709.
19. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ү., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНМОХИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.
20. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
21. Sultanov, Sirojbek Habibullayevich (2023). IJTIMOIY ADOLATNI TUSHUNISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (1-2), 136-142.
22. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистонда таълим тизими шаклланишининг тарихий асослари // Илм сарчашмалари. - Ургенч, 2020. – №3. – Б. 49-54. (09.00.00; №17).
23. Жуманиёзова Н.С. Хорижий давлатлар таълим тизими тараққиёти (Сингапур мисолида) // Имом Бухорий сабоқлари. – Бухоро, 2020 – №2. – Б. 144-147. (09.00.00; № 9).
24. Jumaniyazova N.S. Reforms in improving the quality of higher education and its philosophical and legal basis // International Journal of Psychosocial Rehabilitation: Vol. 24, Issue 08, 2020. – P. 6499-6505. (№3; Scopus).
- Жуманиёзова Н.С. The role of social servicesin the molernization of higher eluation // Ўзбекистон Республикаси олий таълими инновацион ривожланиш йўлида: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Кўқон, 2019. –Б. 357-359.
25. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистон олий таълим тизимини халқаро миқёсда интеграциялашуви // “Транспорт соҳасида халқаро даражадаги мутахассис кадрлар тайёрлаш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами, Тошкент, - Б. 413-418.

26. Жуманиёзова Н.С. Глабаллашув жараёнида олий таълимда кадрлар сифати масаласи // Глоболлашув шароитида ахборот таҳдидларига қарши курашишнинг замонавий технологияларини яратиш муаммолари: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент, 2020. –Б. 136-140.
27. Жуманиёзова Н.С. Алишер Навоий меросининг жаҳон цивилизация тарихида тутган ўрни // Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида санъат ва маданият масалалари: Халқаро илмий - назарий ва амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2018. – Б.106-109.
28. Жуманиёзова Н.С. Мустақиллик йилларида миллий маънавий меросимизнинг тикланиши, туризм соҳасида амалга оширилган кенг кўламли ислоҳотлар // Ислом Каримов – янги давр ўзбек давлатчилигининг асосчиси: Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2018 – Б. 22-26.
29. Жуманиёзова Н.С. Оила институтининг функционал жиҳатлари ва ёшлар тарбиясидаги ўрни // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2018.-№-1/4/1. – Б.121-214.
30. Жуманиёзова Н.С. Бошқарув маданиятида ахлоқий қадриятлар инъикоси // Ижтимоий - гуманитар фанларнинг долзарб масалалари: ривожланиш истиқболлари: Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. - Нукус, 2018. – Б.242 -244.
31. Жуманиёзова Н.С. Оналик ва болаликни ижтимоий ҳимоялаш масалалари // Социологияни ўқитиши ва социологик тадқиқотларни ташкил этишининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2018 – Б.68-69.
32. Жуманиёзова Н.С. Буюк келажакнинг буюк ёшлари // Ислом Каримов – янги давр ўзбек давлатчилигининг асосчиси: Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2018 – Б.50-54.
33. Jumaniyazova N.S. The impact of the synthesis of global multicultural civilization and modernization on the socio-cultural life of Uzbekistan // International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. Indonesia, 30 may 2022 (Session 5) – P. 88-90.
34. Jumaniyazova N.S.The role of social institutions in the development of young people // Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ). Vol. 10, Issue 6, June. 2022. – P.67-70.